



## INKLYUZIV TA'LIMDA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR BILAN ISHLASH

*Ergashova Munisa Hoshim qizi*

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti “Tillar va maktabgacha ta’lim”*

*fakulteti o‘qituvchisi*

*Egamberganova Gulruh Bahodir qizi*

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti “Tillar va maktabgacha ta’lim”*

*fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi zaif situvchi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning mazmun mohiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Zaif eshituvchi, gumanistik mohiyat, ta’lim-tarbiya.

Davlatimizning ta’lim sohasidagi davlat siyosati umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga, inson huquqlari, ta’limning gumanistik mohiyati, har kimning tili, dini millatidan qat’iy nazar bilim olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarining kafolatlanishi, ta’lim olishda teng huquqlilikdan foydalanishga tayanadi.

Ta’limni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar:

- ta’lim sohasida fuqarolarning huquqlari,
- erkinliklari va qonuniy manfaatlarining kafolanishi;
- ta’lim olishda tenglik, shu jumladan, rivojlanishida maxsus psixofizik xususiyatlari bo‘lgan shaxslarga, ularning sog‘lig‘i va bilim qobiliyatlariga muvofiq, asosiy ta’limning barcha darajalarida va qo‘srimcha ta’lim olishda shart-sharoitlar yaratish;
- rivojlanishida maxsus psixofizik xususiyatlari bo‘lgan.



D.A.Nazarova tomonidan maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishida ilk bor maktabgacha ta’limda o‘quvchidagi zaif eshituvchi bolalarning nutqiy rivojlanish darajasini tadqiq qilish metodikasining moslashtirilgan varianti, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirishning mazmuni, yangi interfaol usullari hamda shakllari, o‘rganilayotgan bolalarning umumiyligi rivojlanishini ta’minlashda ularning o‘ziga xos rivojlanish omilidan kelib chikib, nutqini keng qamrovli rivojlantirish tizimi ishlab chiqilgan va asoslab berilgan.<sup>1</sup>

Nogironligi bo‘lgan bola maktabga yoki jamiyatga moslashishi kerak. Bolaning tibbiy tashxisidan qat’iy nazar pedagog unga moslashuvchan ta’lim muhitini yaratishi lozim. Masalan, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola maktab ta’limiga moslashishi uchun eshituv apparatidan foydalanishni hamda gapirishni o‘rganishi lozim. Sog‘lom boladan esa imo-ishora tilini va muloqotning boshqa shakllarini o‘rganish talab qilinmaydi. O‘qishida va ta’lim olishida muammo bo‘lsa, bola standart talablarni bajarishi kerak. Aks holda o‘qituvchi qo‘sishimcha mashhg‘ulotlar o‘tilishi lozim. Inklyuziv ta’lim bolani emas ta’lim tizimni o‘zgartirishni taqozo qiladi. Nazariy adabiyotlarni tahlil qilib o‘rganish jarayonida integratsion va inklyuzivlik tushunchalarining o‘rtasida umumiylilik mavjudligi o‘rganildi, bu umumiylilik asosida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimiga kiritish yotadi.

Defektolog T.A.Vlasova, D.V.Neyman R.M.Boskislarning bergen ma’lumotlariga ko‘ra, eshitishida nuqsonlari bor bolalarning rivojlanish darjasini shu nuqsonning bola hayotining qaysi davrida paydo bo‘lganligiga va og‘ir-yengilligiga bog‘liq. Surdopedagogikada eshitishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar kar, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo‘lib qolgan bolalar guruhlarga bo‘lib

<sup>1</sup> F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Darslik. Chirchiq 2022



o‘rganiladi. Tug‘ma hali tili chiqmagan go‘daklik davrida ikkala qulquning mutlaqo eshitmasligi kar- soqovlikka sabab bo‘ladi. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan bolalar zaif eshituvchi bolalar guruhiga mansub . Nutqi rivojlanib, shakllanib olgandan so‘ng yaxshi eshitmaydigan bo‘lib qolgan bolalar keyinchalik zaif eshituvchi bo‘lib qolganlar guruhiga kiradi. Bu nuqson nutq tarkib topganidan so‘ng vujudga kelsa ham, qulqadagi nuqson tufayli eshitishda xos kamchiliklar bo‘laveradi. Eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko‘ra tug‘ma va orttirilgan bo‘lishi mumkin.

Kar bolalarning 25-30 foizida eshitish nuqsonlari tug‘ma bo‘ladi. Bunga sabab: onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallanishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning homiladorlik davrida bilar-bilmas dori- darmonlarni iste’mol qilishi (ayniqsa, streptomitsin, xinin singari dorilarni), homilaning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (qulq tuzilishidagi patologik o‘zgarishlar bo‘lishi, masalan, eshitish yo‘li atreziyasi - bituvi).<sup>2</sup> Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar sog‘lom tengdoshlari qatorida ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda ta’lim-tarbiya olishi mumkin. Biroq ularga alohida munosabatda bo‘lish, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.

Ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini, xususan ona tili ta’limini amalga oshirishda o‘quvchilarning fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalashga o‘rgatishda daktil belgilardan tegishli bosqichlarda o‘rinli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda so‘zlashuv (og‘zaki, yozma) nutqni shakllantirishga ijtimoiy ehtiyoj sifatida yondashish dolzarb masaladir. Buni amalga oshirish bolalarning jamiyatga moslashuvi, ularning borliqni anglashlari hamda ularni atrofdagilar qanchalik tushunib qabul qilishlari bilan belgilanadi. Kar va zaif

<sup>2</sup> F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Darslik. Chirchiq 2022



eshituvchi bola jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa ijtimoiy munosabatlarning barchasida me’yorda rivojlangan, sog‘lom tengqurlari qatorida o‘z ona tilida bemalol, erkin, samarali va barcha uchun (nafaqat o‘zi kabi taqdirdoshlari) tushunarli tarzda muloqot qila olishini ta’minlash mumkinligi amalda o‘z isbotini topmoqda.

Imkoniyati cheklangan zaif eshituvchi bolalarning ta’lim-tarbiya jarayoni ularning individual ehtiyojlarini inobatga olishni talab etadi. Ushbu bolalar uchun ta’lim berishda diferenciatsiya va individual yondashuvlarning qo’llanilishi muhimdir. O‘qituvchilar va tarbiyachilar, eshitish qobiliyati cheklangan bolalarning qiyinchiliklarini tushunishlari va ularning rivojlanishiga mos keladigan strategiyalarni ishlab chiqishlari zarur.

Texnologiyalardan foydalanish, zaif eshituvchi bolalar uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Videolar, audiovizual materiallar va interaktiv o‘yinlar orqali bilimlarni yetkazishda yangiliklar ochiladi. Shuningdek, qo‘l yozushi, belgi dunyosi va boshqa kommunikativ vositalar, bolalarning o‘zaro aloqalarini osonlashtiradi.

Ta’lim jarayonida ijtimoiy ko‘nikmalarga e’tibor berish, bolalarning jamoaviy faoliyatlar orqali o‘zlarini ishonchli his qilishlariga yordam beradi. Bunda, ularning ijtimoiy muhitga moslashuvini rivojlantirish va o‘zlarini yaxshi his qilishlari uchun sharoit yaratish muhimdir.

Umuman olganda, zaif eshituvchi bolalar uchun ta’lim-tarbiya jarayoni, ularga sekin-asta, sabr-toqat bilan va ular uchun eng maqbul tillar va vositalar orqali taqdim etilishi lozim. Bu yondashuv, ularga hayot sifatini yaxshilash, ijodiy yondashuvni rivojlantirish va o‘z maqsadlariga erishishga yordam beradi.



### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika. Darslik. Chirchiq 2022
2. Р.Шомахмудова. Инклюзив таълимнинг назарий ва амалий асослари. Тошкент: ХТ “Розиқов О.Ж”. 2007 й.
3. D.S.Qaxarova —Inklyuziv ta‘lim texnologiyasi. Toshkent. 2014
4. Инклюзивное образование в Испании. Пашкова.М, Скуднова. Т.Д.2018.